Ismailov Murodulla Kaxramonovich	
Rang konseptlarini o'qitishga oid xalqaro tadqiqotlar tahlili: ilmiy bo'shliqlar va metodologik istiqbollari	643
Arabova Gulnura Yuzboy qizi	
Sun'iy intellektning inson tafakkur jarayonlariga psixologik ta'siri.....	648
Usmonov Sherzod Axmadjonovich, Raxmonov Sa'natjon Baxtiyorovich	
Milliy cholg'u ansambllari orqali o'quvchilar musiqiy dunyoqarashini shakllantirish	651
Dadamirzayeva Gulshanoy To'lanjon qizi	
Raqamli kompetensiyalar tizimi va talaba mustaqilligining pedagogik-psixologik ko'rsatkichlari	656
Qahramonova Xumora Qahramonovna	
Oliy ta'limda axborot texnologiyalaridan foydalanish madaniyatini shakllantirish mexanizmlari	661
Ochilova Gulnoza Odilovna	
O'zlashtirish psixologiyasining rivojlanish bosqichlari: psixometrik yondashuvdan raqamli ta'lim muhitigacha	665
Mo'minxo'jayeva Zuhra Alimjon qizi	
GeoGebra yordamida ko'pyoqlilarni o'qitish metodikasi.....	672
Pirlepsov Umrbek Baxtiyor o'g'li	
Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichidagi dzyudochilarning umumiy jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish usullari	675
Jumanova Iroda Shokirjon qizi	
O'zbekistonda nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy integratsiya va tibbiy korreksiyalash istiqbollari.....	678
Jurayeva Mushtariy Muxaydinovna	
Oila hamkorligida koxlear implantli bolalarni inklyuziv ta'limga tayyorlash	684
Atamirzayeva Zebunniso Baxtiyor qizi	
Bulutli texnologiyalar va ularning ta'lim jarayonidagi o'rni	689
Shirinov Feruzjon Shuxratovich, Yuldasheva Gulsanam Odiljon qizi	
O'zbek tilida axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga oid neologizmlarning shakllanishi va qo'llanish xususiyatlari	692
Bektosheva Mehinbonu Abdumalik qizi	
Ota-onalar va mahalla faollarining pedagogik kompetensiyasini rivojlantirishning zamonaviy mexanizmlari..	695
Abdurazoqova Marg'uba Muxammad qizi	
Forming Emotional Intelligence of Primary School Students Through Extracurricular Activities	700
Yusupova Diloromxon	



OTA-ONALAR VA MAHALLA FAOLLARINING PEDAGOGIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI

Abdurazoqova Marg'uba Muxammad qizi

Qori Niyoziy nomidagi tarbiya pedagogikasi milliy instituti
tayanch doktoranti

Annotatsiya: Maqolada ota-onalar va mahalla faollarining pedagogik kompetensiyasini rivojlantirishning zamonaviy mexanizmlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda U. Bronfenbrennerning ekologik tizimlar nazariyasi, J. Epsteinning maktab-oila-jamiyat hamkorligi modeli, J. Kolemanning ijtimoiy kapital konsepsiyasi kabi xorijiy ilmiy yondashuvlar, shuningdek, o'zbek mutafakkirlari va zamonaviy olimlarining ishlari qiyosiy tahlil qilingan. Pedagogik kompetentlik tushunchasining mazmun-mohiyati, uning tarkibiy qismlari ochib berilgan, shuningdek, ota-onalar va mahalla faollarining pedagogik-psixologik bilimlarini oshirishga yo'naltirilgan zamonaviy shakl va metodlar, xorijiy tajriba hamda raqamli platformalar asosida tizimlashtirilgan.

Kalit so'zlar: pedagogik kompetensiya, ota-onalar, mahalla faollari, pedagogik ma'rifat, ekologik tizimlar nazariyasi, ijtimoiy kapital, maktab-oila-jamiyat hamkorligi, xorijiy tajriba.

Abstract: This article provides a scientific-theoretical analysis of modern mechanisms for developing the pedagogical competence of parents and mahalla (local community) activists. The study presents a comparative analysis of foreign scientific approaches, including U. Bronfenbrenner's ecological systems theory, J. Epstein's school-family-community partnership model, and J. Coleman's social capital concept, as well as the works of Uzbek thinkers and contemporary scholars. It reveals the content and essence of the concept of pedagogical competence and its structural components and systematizes modern forms and methods, foreign experience, and digital platforms aimed at enhancing the pedagogical and psychological knowledge of parents and mahalla activists.

Key words: pedagogical competence, parents, mahalla activists, pedagogical enlightenment, ecological systems theory, social capital, school-family-community partnership, foreign experience.

Аннотация: В статье научно-теоретически проанализированы современные механизмы развития педагогической компетентности родителей и активистов махалли. В исследовании проведён сравнительный анализ зарубежных научных подходов, таких как теория экологических систем У. Бронфенбреннера, модель сотрудничества школы, семьи и общества Дж. Эпштейна, концепция социального капитала Дж. Коулмана, а также работ узбекских мыслителей и современных учёных. Раскрыты содержание и сущность понятия педагогической компетентности, её структурные компоненты, а также систематизированы современные формы и методы, зарубежный опыт и цифровые платформы, направленные на повышение педагогико-психологических знаний родителей и активистов махалли.

Ключевые слова: педагогическая компетентность, родители, активисты махалли, педагогическое просвещение, теория экологических систем, социальный капитал, сотрудничество школы, семьи и общества, зарубежный опыт.

KIRISH

Zamonaviy jamiyatda yosh avlod tarbiyasi sifatini oshirish masalasi nafaqat ta'lim muassasalari, balki oila va mahalla institutlarining ham pedagogik jihatdan yetarli darajada tayyor bo'lishini talab etadi. Bolaning shaxs sifatida shakllanishida ota-onalarning pedagogik madaniyati, ularning umumta'lim darajasi, umummadaniy saviyasi hamda tarbiyaviy ko'nikmalari hal qiluvchi ahamiyatga ega ^[1.14]. Bu fikr aslida jadidchilik harakatining yirik vakili Abdulla Avloniyning pedagogik merosida ham o'z aksini topgan: u tarbiyani "birinchi uy tarbiyasi - ona vazifasi, ikkinchi maktab va madrasa tarbiyasi - ota, muallim va hukumat vazifasi" sifatida ta'riflab, ota-onaning bilimsizligi farzand tarbiyasiga to'sqinlik qilishi mumkinligini achchiq kinoya bilan ta'kidlagan edi ^[16.10]. Bu tarixiy qarash bugungi kunda ota-onalar pedagogik kompetensiyasini maqsadli rivojlantirish zarurligining ildizlarini ko'rsatadi.

Xorijiy ilmiy adabiyotlarda ota-onalar va jamiyat faollarining bola tarbiyasidagi o'rni amerikalik psixolog Uri Bronfenbrennerning ekologik tizimlar nazariyasi (ecological systems theory) orqali chuqur asoslangan. Bronfenbrennerga ko'ra, bola rivojlanishi besh o'zaro bog'liq tizim - mikrotizim (oila, maktab), mezotizim (oila va maktab o'rtasidagi bog'lanish), ekzotizim (ota-onaning ish joyi, mahalliy xizmatlar), makrotizim (madaniy qadriyatlar va qonunlar) va xronotizim (vaqt davomidagi o'zgarishlar) ta'sirida kechadi [17.1]. Bu nazariya shuni ko'rsatadiki, mahalla faollari aynan ekzotizim darajasida - bolaning bevosita ishtirokisiz, lekin uning rivojlanishiga bilvosita ta'sir ko'rsatuvchi muhit sifatida - muhim pedagogik vazifani bajaradi, shu sababli ularning pedagogik kompetensiyasi bolalar tarbiyasi sifatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Amerikalik sotsiolog Jeyms Kolemanning ijtimoiy kapital (social capital) konsepsiyasiga ko'ra, bolaning ta'lim muvaffaqiyati nafaqat oilaning iqtisodiy resurslariga, balki oila, maktab va jamiyat o'rtasidagi ishonchli ijtimoiy aloqalar tarmog'iga ham bog'liq; ota-onalarning maktab hayotiga jalb etilishi, qo'shnihilik munosabatlarning barqarorligi va jamoatchilik nazorati bolalar uchun "himoyalovchi ijtimoiy kapital" yaratadi [18.1]. Bu nazariya mahalla institutining ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslab beradi, chunki mahalla aynan shunday qo'shnihilik ijtimoiy kapitalining tashuvchisi hisoblanadi.

Jons Xopkins universiteti professori Joys Epsteinning maktab-oila-jamiyat hamkorligi modeli (school-family-community partnership model) ota-onalar va jamiyat ishtirokining olti turini ajratib ko'rsatadi: ota-onalik (parenting), aloqa (communicating), ko'ngillilik (volunteering), uyda o'qitish (learning at home), qaror qabul qilishda ishtirok (decision-making) va jamiyat bilan hamkorlik (collaborating with the community) [19.1].

Epsteinning fikricha, bu olti yo'nalish o'zaro qoplanuvchi ta'sir doiralari (overlapping spheres of influence) sifatida faoliyat yuritadi va barcha tomonlar bolaning muvaffaqiyatiga umumiy manfaatdor ekanligini anglatadi [20.1]. Ushbu model O'zbekiston sharoitida mahalla faollarini ham "jamiyat bilan hamkorlik" komponentining faol subyekti sifatida kiritish imkonini beradi.

42 ta tadqiqotni (2003-2021-yillar) qamrab olgan metatahlilda Bronfenbrennerning ekologik nazariyasi, Burdyoning madaniy kapital va Kolemanning ijtimoiy kapital konsepsiyalari asosida ota-onalarning ta'lim jarayoniga jalb etilishi bilan o'quvchilar akademik muvaffaqiyati o'rtasida ijobiy korrelyatsiya aniqlangan; bunda ota-onalarning farzandlariga kitob o'qib berishi, ta'lim borasida yuqori kutilmalarga ega bo'lishi va maktab bilan muloqotni yo'lga qo'yishi alohida ta'kidlangan [21.1]. Bu xulosa ota-onalar pedagogik kompetensiyasini oshirish nafaqat ma'naviy, balki o'lchanadigan akademik samara beruvchi investitsiya ekanligini ko'rsatadi.

TADVIQOT METODOLOGIYASI

Pedagogik kompetentlik tushunchasi ilmiy adabiyotlarda turlicha talqin etiladi. Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi hamda ularni amalda yuqori darajada qo'llay olishi sifatida belgilanadi [4.22].

Ijtimoiy kompetentlik tarkibiga ota-onalar majlislari kun tartibiga ma'naviy-ma'rifiy masalalarni kiritish, yillik tarbiyaviy ishlar rejasini ota-onalar bilan birgalikda muhokama qilish kabi faoliyat shakllari kiritilganligi alohida tadqiqotlarda asoslab berilgan [5.45].

Zamonaviy ta'lim sharoitida o'qituvchi va tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini doimiy takomillashtirib borish zarurati uzluksiz ta'lim tizimi orqali ta'minlanadi [6.18].

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik ishlarni tashkil etish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda ota-onalar savodxonligini oshirish bilan bog'liq ish shakllarini tanlash, variativlik va ochiqlik tamoyillariga muvofiq oila, maktab va mahalla, shuningdek, nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlikni tashkil etish tamoyili asosiy yo'nalish sifatida belgilangan [7.3].

Bundan tashqari, maktabgacha ta'lim muassasalari amaliyotida tashkilotga jalb qilinmagan bolalar ota-onalari, buvi va bobolarni mahalla faollari bilan hamkorlikda tadbirlarga taklif etish orqali ularning psixologiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatish usuli samarali deb topilgan [8.5].

Bolani yaxshi tarbiyalagan ota-onalarni va maktabga yordam bergan mahalla faollarini rag'batlantirish tizimi tarbiyaviy ishlar metodikasida alohida o'rin egallaydi [9.163], bu yondashuv "Fuqarolar yig'inlari va mahallalardagi xotin-qizlar faollarining faoliyati samaradorligini baholashning reyting tizimi to'g'risida"gi Nizomda institutsional darajada mustahkamlangan [12.1].

TAHLIL VA NATIJALAR

Finlyandiyada "eSupport Families" dasturi orqali ota-onalar uchun elektron maslahat markazlari tashkil etilgan bo'lib, ular psixologik, pedagogik va huquqiy maslahatlarni masofadan olish imkoniga ega. Yaponiyada esa "Digital Inclusion for All" dasturi shunga o'xshash vazifani bajaradi [14.1]. Janubiy Koreya tajribasida bolalar



bog'chalari o'qituvchilari doimiy ravishda ota-onalar bilan uchrashuvlar tashkil etadi, faoliyat haqida muntazam so'rovnomalar o'tkazadi va takliflarni yozib oladi. Bu esa ota-ona va pedagog o'rtasidagi ikki tomonlama muloqotni institutsionallashtirgan tizimli amaliyot hisoblanadi [22.1].

Shuningdek, Janubiy Koreya, Yaponiya, Germaniya va Gretsiya kabi davlatlarda oila va ta'lim tashkiloti bolalarda qadriyat tushunchasini shakllantirishda pedagogik qo'llab-quvvatlash ko'rsatuvchi eng muhim ijtimoiy-madaniy institut sifatida belgilangan. Bu yondashuv YUNESKONing 2030-yilgacha xalqaro ta'lim konsepsiyasida ham o'z aksini topgan [23.1].

Xulosa qilib aytganda, xorijiy nazariy konsepsiyalar (Bronfenbrenner, Epstein, Koleman) va o'zbek olimlarining amaliy tadqiqotlari bir-birini to'ldiruvchi ilmiy asos yaratadi: birinchisi ota-onalar va mahalla faollarining bolaning ekologik muhitidagi o'rnini nazariy jihatdan izohlaydi, ikkinchisi esa O'zbekiston sharoitida bu o'rinni amalga oshirishning mahalliy mexanizmlarini ishlab chiqadi.

Tadqiqotda nazariy tahlil, tizimlashtirish, qiyosiy-pedagogik tahlil, hujjatlarni tahlil qilish va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Xorijiy va mahalliy pedagogik-psixologik adabiyotlar, me'yoriy-huquqiy hujjatlar, xalqaro tajriba materiallari tahlil qilindi. Metodologik asos sifatida ekologik-tizimli (Bronfenbrenner), kompetensiyaviy, shaxsga yo'naltirilgan va ijtimoiy-pedagogik yondashuvlar olindi. Bu ota-onalar va mahalla faollarini bolaning rivojlanish muhitining tarkibiy qismi va pedagogik faoliyat subyekt sifatida bir vaqtda ko'rib chiqish imkonini beradi. Ota-onalar va mahalla faollarining pedagogik kompetensiyasi - bu ularning bolalar va o'smirlar tarbiyasiga oid zarur bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi, shuningdek, ushbu bilimlarni amaliy vaziyatlarda samarali qo'llay olish qobiliyatidir. Kasbiy kompetentlikka oid umumiy yondashuvga ko'ra, kompetensiya doimiy ravishda boyitib borilishi, yangi ma'lumotlarni izlab topish, qayta ishlash va amaliyotga tatbiq etishni taqozo etadi [4.22].

Epsteinning olti komponentli modeli nuqtai nazaridan qaraganda, bu kompetensiya shunchaki nazariy bilim emas, balki amaliy ishtirok ko'nikmasi, ya'ni ota-onalik, aloqa, ko'ngillilik va qaror qabul qilishda ishtirok etish qobiliyatlarining yig'indisidir [19.1].

Ota-onalar va mahalla faollari pedagogik kompetensiyasining tarkibiy qismlarini quyidagicha ajratish mumkin: nazariy-bilim komponenti (bola psixologiyasi, yosh xususiyatlari, milliy tarbiya an'analari haqidagi bilimlar), amaliy-malaka komponenti (muloqot ko'nikmalari, nizolarni hal qilish, tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish qobiliyati), raqamli-axborot komponenti (zamonaviy ta'lim platformalari va elektron resurslardan foydalanish ko'nikmasi) va motivatsion-qadriyatli komponent (bolalar taqdiriga mas'uliyatli munosabat, jamoatchilik faoliyatiga ichki ehtiyoj).

An'anaviy amaliyotda ota-onalar pedagogik bilimlarini oshirish asosan ota-onalar majlislari, individual suhbatlar va ma'ruzalar orqali amalga oshirilgan. Tadqiqotchilar ta'kidlashicha, ota-onalar majlislari kun tartibiga ma'naviy-ma'rifiy mavzularni muntazam kiritish va yillik ish rejasini ular bilan birgalikda muhokama qilish samarali natija beradi [5.45]. Biroq zamonaviy sharoitda bu shakllar yetarli emas, chunki ular bir tomonlama axborot uzatish xususiyatiga ega va Epstein ta'kidlagan "ikki tomonlama aloqa" (communicating) tamoyiliga to'liq javob bermaydi [19.1].

Interaktiv trening va seminarlar - ota-onalar va mahalla faollari uchun amaliy mashg'ulotlar, vaziyatli o'yinlar, keys-stadi metodlari asosida tashkil etilgan o'quv-uslubiy yig'ilishlar. Raqamli platformalar va onlayn resurslar - O'zbekistonda joriy etilgan eMaktab.Oila va Kundalik.Family mobil ilovalari ota-onalarga farzandlarining ta'lim jarayoni haqida real vaqtda axborot olish va pedagoglar bilan muloqot qilish imkonini beradi [15.1]. Bu shakl axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta'lim sohasidagi tutgan o'rni ortib borayotganligi bilan izohlanadi [10.244].

Mahalla miqyosidagi "pedagogik ma'rifat maktablari" - mahalla faollari, sog'liqni saqlash xodimlari, psixolog va pedagoglar ishtirokida muntazam tashkil etiladigan ma'rifiy uchrashuvlar. Bu shakl Janubiy Koreyadagi tarbiyachi-ota-ona muntazam uchrashuvlari amaliyotiga hamohang [22.1]. Ilg'or oilalar tajribasini ommalashtirish - bolani yaxshi tarbiyalagan ota-onalar va faol mahalla a'zolarining tajribasini boshqa oilalarga namuna sifatida taqdim etish, ularni rag'batlantirish orqali motivatsion mexanizmi kuchaytirish [9.163].

Hamkorlikdagi loyiha faoliyati - ota-onalar, mahalla faollari va o'quvchilarning birgalikda ijtimoiy-tarbiyaviy loyihalarni amalga oshirishi. Bu Epsteinning "ko'ngillilik" (volunteering) va "jamiyat bilan hamkorlik" komponentlariga mos keladi [19.1]. Elektron hisobot va monitoring vositalari - mahallalardagi xotin-qizlar faollari uchun joriy etilgan "Ayollar daftari" elektron platformasi orqali masofadan turib hisobot taqdim etish va videokonferensaloqa shaklida yig'ilishlarda ishtirok etish imkoniyati [11.4].

Ota-onalar va mahalla faollarining pedagogik kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlari samarali bo'lishi uchun bir qator shart-sharoitlarga rioya qilinishi zarur.

Birinchidan, ota-onalarning yosh, kasb-hunar va dunyoqarash jihatidan rang-barang ekanligini hisobga olib, mashg'ulotlarni differensiallashtirilgan tarzda tashkil etish lozim, chunki turli kasb egalarining tarbiyaga bo'lgan munosabati farqlanadi [2.7].

Ikkinchidan, Kolemanning ijtimoiy kapital nazariyasiga muvofiq, mahalla faollarining o'zlari ham dastlab tegishli pedagogik-psixologik tayyorgarlikdan o'tishi lozim, chunki ular ijtimoiy kapitalning asosiy tashuvchisi sifatida xizmat qiladi ^[18.1].

Uchinchidan, malaka oshirish jarayoni uzluksiz ta'lim tizimi mantiqida tashkil etilishi, ya'ni bir martalik tadbir emas, balki davriy va izchil xususiyatga ega bo'lishi kerak ^[6.18].

To'rtinchidan, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, jumladan, interfaol metodlar va axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish ota-onalar va mahalla faollari uchun mashg'ulotlarni qiziqarli hamda amaliy yo'naltirilgan qilishga xizmat qiladi ^[10.244].

Beshinchidan, mahalla faollari faoliyatini reyting tizimi orqali muntazam baholash ularning pedagogik faolligini oshirishga turtki bo'ladi ^[12.1].

Oltinchidan, Epstein ta'kidlagan ikki tomonlama aloqa tamoyiliga asoslanib, ta'lim muassasasi, mahalla va oila o'rtasida o'zaro ishonchli muloqot muhitini shakllantirish zarur ^[19.1].

O'tkazilgan tahlil asosida ota-onalar va mahalla faollarining pedagogik kompetensiyasini rivojlantirishning to'rt bosqichli modelini taklif etish mumkin.

Birinchi, tashxis-aniqlash bosqichida ota-onalar va mahalla faollarining mavjud pedagogik bilim darajasi, ehtiyojlari va qiziqishlari so'rovnoma, suhbat va kuzatuv metodlari orqali aniqlanadi. Bu yondashuv Janubiy Koreya tajribasidagi muntazam so'rovnoma amaliyotiga mos keladi.

Ikkinchi, rivojlantirish bosqichida aniqlangan ehtiyojlarga mos ravishda treninglar, seminarlar, mahalla pedagogik ma'rifat maktablari, raqamli resurslar kabi mexanizmlar tanlab olinadi va izchil tarzda amalga oshiriladi.

Uchinchi, mustahkamlash va rag'batlantirish bosqichida erishilgan natijalar amaliyotda sinaladi, ilg'or tajriba ommalashtiriladi, faol ishtirokchilar taqdirlanadi.

To'rtinchi, baholash va monitoring bosqichida mahalla faollari va faol ota-onalarning pedagogik faoliyati reyting tizimi hamda elektron hisobot vositalari orqali muntazam baholanadi. Bu esa keyingi davrda jarayonning barqaror va shaffof davom etishini ta'minlaydi.

Taklif etilgan mexanizmlarni amaliyotga tatbiq etish bir qator ijobiy natijalarni beradi.

Birinchidan, ota-onalar va mahalla faollarining bola tarbiyasiga oid bilim va ko'nikmalari sifat jihatidan yaxshilanadi.

Ikkinchidan, Bronfenbrenner nazariyasi nuqtai nazaridan, bolaning mezotizimi (oilamaktab bog'lanishi) va ekzotizimi (mahalla muhiti) o'rtasidagi uzilishlar kamayadi. Bu esa bolaning rivojlanishi uchun yagona va izchil tarbiyaviy muhit yaratadi ^[17.1].

Uchinchidan, mahalla miqyosida tarbiyaviy muhitning sifati oshadi, bu esa o'z navbatida bolalar va o'smirlar orasida nosog'lom xulq-atvor ko'rinishlarining oldini olishga xizmat qiladi.

To'rtinchidan, metatahlil natijalari ko'rsatganidek, ota-onalarning pedagogik faolligi bilan bolalarning akademik muvaffaqiyati o'rtasida ijobiy bog'liqlik mavjud ^[21.1].

Shu sababli ota-onalar kompetensiyasini oshirish bevosita ta'lim natijalarining yaxshilanishiga olib keladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ota-onalar va mahalla faollarining pedagogik kompetensiyasini rivojlantirish zamonaviy ta'lim-tarbiya tizimining muhim va dolzarb yo'nalishi hisoblanadi. Bronfenbrennerning ekologik tizimlar nazariyasi va Epsteinning maktab-oilajamiyat hamkorligi modeli bu jarayonni nazariy jihatdan asoslab beradi, Kolemanning ijtimoiy kapital konsepsiyasi esa mahalla institutining ahamiyatini ilmiy jihatdan izohlaydi.

Ushbu jarayonni samarali tashkil etish uchun an'anaviy shakllar bilan bir qatorda interaktiv treninglar, raqamli platformalar, mahalla pedagogik ma'rifat maktablari, hamkorlikdagi loyiha faoliyati va elektron hisobot-monitoring vositalari kabi zamonaviy mexanizmlardan, shuningdek, Finlyandiya, Yaponiya va Janubiy Koreya kabi davlatlarning ilg'or tajribasidan foydalanish zarur. Taklif etilgan to'rt bosqichli model - tashxis-aniqlash, rivojlantirish, mustahkamlash-rag'batlantirish va baholash-monitoring - amaliyotda qo'llanilganda ota-onalar va mahalla faollarining pedagogik tayyorgarligini sezilarli darajada oshirish, natijada yosh avlod tarbiyasi sifatini yaxshilash imkonini beradi.


Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Yangi O'zbekistonda ma'rifatli shaxs tarbiyasi: ilmiy-uslubiy materiallar. - Toshkent, 2023. - 14-b.
2. Raximov B. Pedagogik mahorat: o'quv-uslubiy qo'llanma. - Toshkent, 2022. - 7-b.
3. Kasbiy-pedagogik kompetentlik tushunchasi va tarkibiy qismlari: o'quv qo'llanma. - Toshkent: Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, 2023. - 22-b.
4. "Tarbiya" fani o'qituvchilarining ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishning mazmuni, shakllari va metodlari // Jamiyat va innovatsiyalar. - 2021. - 45-b.
5. O'quvchilarda ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni shakllantirishning pedagogik asoslari // ilmiy maqola. - 2025. - 18-b.
6. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik ishlarni tashkil etish // ilmiy-amaliy jurnal. - Jizzax davlat pedagogika instituti, 2023. - 3-b.
7. Maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish bo'yicha uslubiy tavsiyalar. - Toshkent, 2024. - 5-b.
8. Tarbiyaviy ishlar metodikasi: o'quv qo'llanma. - Toshkent, 2022. - 163-b.
9. Oliy ta'lim muassasalarida pedagogika fanlarini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni rivojlantirish metodikasi // Science and Education. - 2026. - № 7(5). - 244-b.
10. "Fuqarolar yig'inlari va mahallalardagi xotin-qizlar faollari faoliyatining samaradorlik darajasini reyting tizimida baholash tartibi to'g'risida"gi Nizom. - 1-b.
11. eSupport Families va Digital Inclusion for All dasturlari // Central Asian Journal of Education. - 2025. - 30-b. (OECD, 2021 asosida).
12. O'quvchilar va ota-onalar uchun eMaktab.Oila mobil dasturi; Kundalik.Family mobil ilovasi // emaktab.uz, kundalik.com. - 2021-2024.
13. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. - Toshkent: Matbaai Turkiston, 1913 (qayta nashr: "O'qituvchi" nashriyoti, 1992). - 10-b.
14. Bronfenbrenner U. The Ecology of Human Development: Experiments by Nature and Design. - Cambridge, MA: Harvard University Press, 1979; Bronfenbrenner U. Ecological Systems Theory // Annals of Child Development. - 1989. - Vol. 6(1). - P. 187-249. - 1-b.
15. Coleman J.S. Social Capital in the Creation of Human Capital // American Journal of Sociology. - 1988. - Vol. 94. - P. 95-120. - 1-b.
16. Epstein J.L. School, Family, and Community Partnerships: Preparing Educators and Improving Schools. - Boulder, CO: Westview Press, 2001; Epstein J.L. Toward a Theory of Family-School Connections // Teacher Practices and Parent Involvement. - 1987. - 1-b.
17. Joyce Epstein's School-Family-Community Partnership Model // EBSCO Research Starters. - 2024. - 1-b.
18. Re-examination of 42 Studies on Parental Involvement and Academic Achievement // Pegem Journal of Education and Instruction. - 2022. - Vol. 12, No. 2. - P. 32-57.
19. O'zbekiston maktabgacha ta'lim tizimi va Janubiy Koreya tajribasi qiyosiy tahlili // International Journal of Scientific Research. - 2024. - 1-b.
20. Umuminsoniy qadriyatlarga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya dasturi: xalqaro tajriba (Janubiy Koreya, Yaponiya, Germaniya, Gretsiya) // ilmiy konferensiya materiallari. - 2024. - 1-b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(5)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.